O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONLAYN MULOQOT ODOBINI INTERAKTIV HIKOYALAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH

Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna
FarDU dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD) *zulfiyaxolmatova@gmail.com*
FarDU talabasi
Maxsumova Madinaxon Umarxon qizi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida onlayn muloqot odobini shakllantirishning pedagogik mazmuni hamda interaktiv hikoyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Onlayn muloqot odobi suhbatdoshning qadr-qimmatini hurmat qilish, xabarning mazmuni va ohangini hisobga olish, shaxsiy chegaralarni saqlash, axborotni ulashishdan oldin rozilik so'rash, kelishmovchilikni madaniyatli hal etish va zarur vaziyatda ishonchli kattaga murojaat qilish ko'nikmalarining birligi sifatida talqin etilgan. Boshlang'ich sinflarga mos hikoya namunalari, mashg'ulot tashkil etish tartibi, oila bilan hamkorlik yo'llari ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, onlayn muloqot odobi, interaktiv hikoya, raqamli fuqarolik, raqamli empatiya, shaxsiy chegara, kommunikativ ko'nikma, pedagogik modellashtirish, refleksiya, raqamli xavfsizlik.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭТИКИ ОНЛАЙН-ОБЩЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ СРЕДСТВАМИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИСТОРИЙ

Аннотация: *В статье раскрываются педагогическое содержание формирования этики онлайн-общения у учащихся начальных классов и методические возможности использования интерактивных историй. Этика онлайн-общения рассматривается как совокупность взаимосвязанных умений, включающих уважение достоинства собеседника, учёт содержания и тональности сообщения, соблюдение личных границ, получение согласия перед распространением информации, культурное разрешение разногласий и обращение к надёжному взрослому в необходимых ситуациях. Разработаны примеры историй, адаптированных для учащихся начальных классов, порядок организации занятий и способы взаимодействия с семьёй.*

Ключевые слова: *начальное образование, этика онлайн-общения, интерактивная история, цифровое гражданство, цифровая эмпатия, личные границы, коммуникативные навыки, педагогическое моделирование, рефлексия, цифровая безопасность.*

DEVELOPING ONLINE COMMUNICATION ETIQUETTE AMONG PRIMARY SCHOOL PUPILS THROUGH INTERACTIVE STORIES

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract: *The article explores the pedagogical content of developing online communication etiquette among primary school pupils and the methodological potential of using interactive stories. Online communication etiquette is interpreted as an integrated set of interrelated skills, including respecting the dignity of others, considering the content and tone of messages, maintaining personal boundaries, seeking consent before sharing information, resolving disagreements respectfully, and turning to a trusted adult when necessary. Examples of stories adapted to primary school pupils, procedures for organising lessons, and approaches to family collaboration have been developed.*

Keywords: *primary education, online communication etiquette, interactive story, digital citizenship, digital empathy, personal boundaries, communication skills, pedagogical modelling, reflection, digital safety.*

KIRISH

Raqamli muhitdagi muloqot insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos shaklidir. Unda yozma xabar, ovozli yozuv, tasvir, belgi va videodan foydalaniladi. Suhbatdoshning yuz ifodasi yoki ovoz ohangi har doim ham ko‘rinib turmagani sababli xabarning qanday qabul qilinishini oldindan anglash murakkablashadi. Shu sababli onlayn muloqot odobini o‘rgatish bolalarning raqamli muhitdagi munosabatlarini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi raqamli muloqotga turli sharoitlarda duch kelishi mumkin. O‘qituvchi nazoratidagi ta’lim muhiti, oila a’zolari bilan videoaloqa, elektron topshiriqqa izoh yozish yoki birgalikdagi raqamli ijodiy faoliyat shular jumlasidandir. Bolaning mustaqil akkauntga ega bo‘lishi ushbu ta’limning zarur sharti sifatida olinmaydi. Onlayn muloqotga oid ko‘nikmalar shartli yozishmalar, rasmli kartochkalar va o‘qituvchi boshqaradigan mashqlar yordamida ham rivojlantirilishi mumkin.

Onlayn muloqot odobi ko‘pincha salomlashish, muloyim so‘zlardan foydalanish va suhbat yakunida minnatdorlik bildirish bilan izohlanadi. Ushbu harakatlar muhim bo‘lsa-da, mavzuning mazmuni bundan kengroqdir. Bola boshqa kishining tasvirini ulashishdan oldin rozilik so‘rash, tushunmagan xabariga aniqlik kiritish, guruhdagi tengdoshini chetda qoldirmaslik, ranjituvchi xabarga qo‘shilmaslik va noqulay vaziyatni kattaga aytish kabi qarorlarni ham o‘rganishi zarur. Boshlang‘ich ta’limda ushbu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

masalani yoritishda bolaning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Kichik yoshdagi o‘quvchi umumiy axloqiy qoida mazmunini aniq vaziyat orqali osonroq muhokama qilishi mumkin. Onlayn muloqotdagi muammolarning ayrimlari niyat va oqibat o‘rtasidagi tafovut bilan bog‘liq. Bola hazil qilishni istaydi, ammo uning xabari suhbatdoshini ranjitadi. U do‘stining yutug‘ini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, biroq ruxsatsiz surat ulashadi. Guruhdagi bahsga yordam bermoqchi bo‘lib, tekshirilmagan xabarni boshqalarga yuboradi. Bunday holatlarda yaxshi niyat, vaziyatni tushunish va mas’uliyatli harakat o‘rtasidagi munosabatni ochish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Interaktiv hikoya o‘quvchining tanlovi asosida voqea davomining o‘zgarishiga imkon beradigan ta’limiy tuzilmadir. Bunda bola tayyor syujetni kuzatish bilan birga qahramonning keyingi harakati haqida qaror qabul qiladi. Shu tariqa hikoya axloqiy tanlovni xavfsiz sharoitda mashq qilish vositasiga aylanadi. Raqamli hikoya va interaktiv hikoya tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning vazifasi aniqlashtirilishi lozim. Ovoz, tasvir va matn uyg‘unligida taqdim etilgan hikoya raqamli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Interaktiv hikoyada esa o‘quvchining mazmunli ishtiroki, tanlovi yoki voqea rivojiga ta’siri ko‘zda tutiladi. Ekrandagi tugmani bosishning o‘zi pedagogik interaktivlikni ta’minlamaydi.

Peshevska va Koceska tomonidan “uchinchi hamda to‘rtinchi sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda interaktiv raqamli hikoyalarga munosabat o‘rganilgan. Ishtirokchilarning ko‘pchiligi faoliyatga ijobiy munosabat bildirgan. Biroq mazkur ish o‘quvchilarning qiziqishi va foydalanish istagini baholagan, undan onlayn muloqot odobining shakllangani haqida bevosita xulosa chiqarish mumkin bo‘lmaydi”[5; Peshevska M.].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida onlayn muloqot odobini shakllantirishda xabarni yozishdan oldin uning boshqa insonga qanday yetib borishini tasavvur qilish ko‘nikmasi muhim o‘rin tutadi. “Bola ekranda so‘z, tasvir yoki belgi bilan ishlayotgan bo‘lsa ham,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uning ortida his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va shaxsiy chegaralari mavjud suhbatdosh borligini anglab borishi zarur. Shu sababli pedagogik faoliyatning markazida qurilmani boshqarishdan ko‘ra insonlar o‘rtasidagi munosabatni tushunish turadi. Interaktiv hikoyalar ushbu munosabatni ko‘rinadigan vaziyatlarga aylantirish, o‘quvchini qahramonlar qarori ustida fikrlashga undash uchun qulay metodik imkoniyat yaratadi”[6; Qorayev S.]. Mazkur yo‘nalishdagi muhim masalalardan biri bolaning xabar yuboriladigan auditoriyani anglashidir. “O‘quvchi bir kishiga aytiladigan gap bilan butun guruhga yoziladigan fikr o‘rtasidagi farqni har doim ham hisobga olmasligi mumkin”[2; Baratbayev B. B.]. “Interaktiv hikoyada o‘quvchiga xabarning mazmunini saqlagan holda uni kimga va qaysi shaklda yetkazish haqida tanlov beriladi. Shu orqali odobli muloqotning mazmuni so‘z tanlash bilan birga murojaat manzilini o‘ylashga ham bog‘liqligi ochiladi”[1; Abdullayeva S. B.]. O‘quvchilar har ikki vaziyatda yordamning maqsadi, suhbatdoshning holati va boshqalarning ishtirokini tahlil qiladilar. Muhokama natijasida bir xil mazmundagi fikr turli sharoitda turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi anglanadi. Bu usul xabarni vaziyatga moslashtirish ko‘nikmasini mashq qilishga xizmat qiladi.

Onlayn muloqot odobining yana bir qirrasi suhbatga aloqadorlikni saqlashdir. “Guruh bir topshiriqni muhokama qilayotgan paytda ketma-ket boshqa rasmlar, ovozli yozuvlar yoki mavzuga daxli bo‘lmagan xabarlar yuborilishi asosiy ma’lumotni topishni qiyinlashtiradi”[4; Ergasheva Y. M.]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga buni umumiy taqiq orqali tushuntirishdan ko‘ra vaziyatning oqibatini ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Hikoyada qahramon ertangi vazifa haqidagi xabarni ko‘plab qo‘shimcha yozuvlar orasidan topa olmaydi. O‘quvchilar suhbatni qanday tartibga keltirish va muhim ma’lumotni qanday aniq ifodalash mumkinligini taklif qiladilar. Ushbu vaziyat orqali boshqalarning diqqatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish tushunchasi yoritiladi. Ushbu firklarga asoslangan holda biz quyidagi rasm ostidagi izoh metodini tavsiya etdik. Bu uchinchi sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qituvchi tayyorlagan shartli



raqamli devorga bolalar o‘z ishlarini joylashtiradilar. Qahramonlardan biri hisoblash topshirig‘ida xato qiladi. Boshqa o‘quvchi bu xatoni ko‘rib, izoh yozishi kerak bo‘ladi.

NATIJALAR

Boshlang‘ich vaziyat o‘quvchiga kimlar muloqot qilayotgani, ularning maqsadi va qanday muammo yuzaga kelganini tushuntiradi. Voqea ortiqcha personaj va keraksiz tafsilotlar bilan yuklanmasligi zarur. Ikki o‘quvchi umumiy rasm ustida ishlayotgani va biri ikkinchisining taklifini tushunmagani yetarli boshlang‘ich shart bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarga vaziyatni tushunish va yetishmayotgan ma’lumotni aniqlash uchun vaqt beradi. Muqobil harakatlar o‘quvchining real fikrlashini talab qiladigan tarzda tuziladi. Bir variant nihoyatda muloyim, boshqasi qo‘pol, uchinchisi mazmunsiz bo‘lsa, bola javobni tashqi belgiga qarab topishi mumkin. Shu sababli variantlarning ayrimlari qisman maqbul, ammo turli oqibatlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Masalan, javobni darhol yozish va avval savol berish o‘rtasidagi farq muhokama qilinadi.

Bola o‘ziga tushunarli bo‘lgan ma’lumot suhbatdoshiga ham ma’lum deb o‘ylaydi. Hikoya o‘qish jarayonida o‘quvchilar noaniq so‘zlarni aniqlashtirib, xabarni qayta tuzadilar. Natijada tushunarlilik suhbatdoshga ko‘rsatiladigan e’tibor sifatida talqin qilinadi. Hikoyadagi barcha oqibatlarni qat’iy belgilash ijtimoiy hayotni haddan tashqari soddalashtirish xavfini tug‘diradi. Raqamli hikoyalarga oid tadqiqotlar mazkur vositaning boshlang‘ich ta’limdagi imkoniyatlarini o‘rganishga asos yaratadi. Natijalar darsga munosabat va tadqiqotda o‘lchangan boshqa ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu ish onlayn muloqot odobini bevosita tekshirmagani uchun uning xulosalarini mazkur mavzuga to‘liq ko‘chirish mumkin bo‘lmaydi. Interaktiv hikoyalar tayyor isbotlangan yechim sifatida taqdim etilmaydi. Ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining onlayn muloqot qarorlarini mashq qilish uchun nazariy jihatdan asoslangan metodik imkoniyat sifatida taklif etiladi.

MUHOKAMA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O‘qish tezligi past bo‘lgan bola variantlarni boshqalardan kechroq anglagani uchun noqulay holatga tushmasligi kerak. Ovozli o‘qish, takror tinglash, matnni yiriklashtirish va javobni og‘zaki bildirish imkoniyatlari yaratiladi. Vaqtga qarshi musobaqa axloqiy qarorlarni o‘rganishning asosiy shakliga aylantirilmaydi. Muloqot odobi bilan xavfsizlik o‘rtasidagi aloqani tushuntirishda ham chegaralar aniq bo‘lishi kerak. Bolaning xushmuomalaligi undan noqulay savolga javob berishni, shaxsiy ma’lumotni aytishni yoki bezovta qiluvchi suhbatni davom ettirishni talab qilmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida onlayn muloqot odobini shakllantirish raqamli muhitdagi munosabatlarni tushunish, suhbatdosh qadr-qimmatini hurmat qilish va vaziyatga mos qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Mazkur jarayon salomlashish va muloyim iboralarni o‘rgatish bilan birga rozilik, shaxsiy chegara, hissiy o‘zini boshqarish, aniqlashtiruvchi savol va yordam so‘rash tajribasini qamrab oladi.

Muloqotdagi samimiylikni muhokama qilishda bolaning o‘z ovozi va ifoda uslubini qadrlash muhimdir. Juda bezatilgan, ammo mazmuni anglanmagan xabardan ko‘ra tushunarli va chin munosabatni bildiradigan sodda jumla vaziyatga mos kelishi mumkin. Hikoya qahramoni do‘stidan uzr so‘rash uchun tayyor matn topadi, lekin unda aynan nima uchun uzr so‘ralayotgani ko‘rsatilmagan bo‘ladi. O‘quvchilar matnni qahramonning harakati, yetkazilgan noqulaylik va uni tuzatish taklifi bilan boyitadilar. Bu faoliyat onlayn odobni tashqi chiroyli ifodadan mas’uliyatli mazmunga yo‘naltiradi.

XULOSA

Hikoya ustida ishlashda voqeani turli qahramonlar nigohidan qayta o‘rganish metodik jihatdan samarali imkoniyat yaratishi mumkin. Dastlab o‘quvchi xabar yuborgan bola nomidan qaror qabul qiladi. Keyin ayni voqeani xabarni qabul qilgan yoki suhbatni kuzatgan tengdosh nuqtayi nazaridan ko‘radi. Har bir qahramonda mavjud ma’lumot farq qilishi mumkinligi ochiladi Boshlang‘ich sinflarda onlayn muloqot

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

odobini shakllantirish til imkoniyatlari bilan ham bog‘liq. Ayrim o‘quvchilar kerakli fikrni biladilar, ammo uni muloyim jumlaga aylantirishda qiynaladilar.

“Onlayn muloqot odobining rivojlanishini kuzatishda o‘quvchining gapni qanchalik chiroyli aytgani bilan birga qanday mulohaza qilgani ham o‘rganilishi kerak”[3; Eraliyeva Z.]. U noma’lum ma’lumotni tan oldimi, suhbatdoshning ehtiyojini hisobga oldimi, o‘z javobini tahrirladimi, zarur joyda yordam tanladimi, ana shu savollar rivojlanish haqida mazmunli dalil beradi. Hikoya ichidagi muvaffaqiyatni kundalik xulqqa tenglashtirishdan saqlanib, yangi vaziyatlarda ko‘nikmaning qay darajada qo‘llanishini kuzatish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva, S. B. (2026). Interaktiv raqamli hikoyalar asosida o‘quvchilarning axloqiy tanlov va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi, 4(10), 513–518.
2. Baratbayev, B. B. (2024). Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Farg‘ona – 2024. 183 B. 75-bet.
3. Eraliyeva, Z. (2025). Raqamli hikoya yaratishni maktabgacha ta’limga integratsiya qilish: Kichik yoshdagi bolalarda ijodkorlik, muloqot va emotsional intellektni rivojlantirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 16, 176–178.
4. Ergashev, Y. M. (2026). Onlayn muloqot madaniyati va uning yoshlarning xulq-atvoriga ta’siri. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali, 10(2), 561–565.
5. Peshevska, M., & Koceska, N. (2024). The effect of digital storytelling on primary school students. International Journal of Computers in Education, 7(1).
6. Qorayev, S., & Abdujalilova, Sh. (2024). Umumiy pedagogika. Olmaliq kitob business. ISBN: 978-9910-780-31-8 234 B. Toshkent – 2024.146-bet.